

## AQSH TASHQI SIYOSATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI NEOKONSERVATIV "AQL MARKAZ" LARNING SHAKLLANISHI

**Turayev Abrar Saloxiddinovich**

Jizzax DPU, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada AQShda yuzaga kelgan neokonservativ "aql markaz"larning shakllanishi omillari, tashqi siyosiy mo'ljallari hamda rivojlanish omillari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** AQSh, neokonservativizm, siyosat, tashqi siyosat, Yaqin Sharq, siyosiy realizm, xalqaro munosabatlar.

### ABSTRACT

This article discusses the formation factors, foreign political goals and development factors of the neoconservative "think tanks" that have emerged in the United States.

**Keywords:** USA, neoconservatism, politics, foreign policy, Middle East, political realism, international relations.

### KIRISH

Bugungi kunda dunyoning qudratli davlatlari o'rtasidagi raqobat tobora global ziddiyatlarni keltirib chiqarish xavfini tug'dirmoqda. Dunyodagi o'zaro ishonch ruhining kamayishi o'z navbatida geosiyosiy taranglashuvni ham kuchaytirmoqda deyish mumkin. Xalqaro munosabatlar va geosiyosiy jarayonlar tadqiqotlarida davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ta'siri ortib borayotgan "aql markaz"larni o'rganib borishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki, ayrim davlatlardagi ta'sirchan siyosiy guruhlar, lobbichilik tashkilotlari aynan "aql markaz"lar vositasida siyosiy qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatib keladi. Xususan, AQShda faoliyat yuritib kelayotgan neokonservativizm mafkurasi asosiga qo'rilgan tahlil markazlarining bu boradagi o'rni yuqori hisoblanadi. O'tgan asrning 50-yillaridan siyosiy jarayonlarda ko'rinishga boshlagan neokonservativ doiralar AQShning keyingi davrdagi ichki va tashqi siyosatiga ta'siri bilan yaqqol namoyon bo'ldi.

### ASOSIY QISM

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQShdagi neokonservativ g'oya ta'sirchanligini, endilikda, butun dunyo darajasiga ko'tarish masalasi kun tartibiga chiqa boshladi. Shu nuqtai nazardan, 1960-yillarda neokonservativizm asoschilaridan

bo'lgan N.Podgores boshchiligida asosiy e'tibor xalqaro munosabatlar va milliy xavfsizlik masalalariga qarata boshladi. Shu davrdan boshlab AQSh neokonservatizmining tashqi siyosiy yondashuvi rivoji boshlandi, deb aytish mumkin.

AQSh neokonservatizmida tashqi siyosiy g'oyalar rivoji, asosan, N.Podgores, D.Moynixen va J.Kirpatriklar qarashlari asosida shakllandi. Ushbu oqimning I.Kristol, N.Gleyzer, D.Bell kabi vakillari esa, ko'proq mo'tadil siyosiy qarashlarga ega bo'lib, asosan, AQShning ichki siyosati bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratishgan. Shu bois, neokonservatizm, avvalo, o'zini ichki siyosiy oqim sifatida namoyon qildi. Shu bilan birga, ular qatorida jahon siyosatiga ayri nazar bilan qaraydigan nazariyotchilar ham yo'q emas edi. Aynan ularning g'oyalari R.Reygan hukumati e'tiborini tortdi hamda keyinchalik neokonservatizmning ikkinchi avlodi rivoji uchun zamin tayyorladi. XX asrning 70-yillarida neokonservatizm AQSh ichki va tashqi siyosatiga yashirin ta'sir ko'rsatib kelgan bo'lsa, 80-yillarda esa, u norasmiy maqomda tursada AQSh hukmron elitasining siyosiy mafkurasi sifatida namoyon bo'ldi. Demak, 1960-1970-yillar neokonservatizmning ichki va tashqi siyosiy mafkurasi qaror topish davri bo'ldi. 1980-yillar boshida ko'plab neokonservatorlarning Respublikachilar partiyasiga o'tishi kuzatildi. Bu davrda aksariyat neokonservatorlar AQShdagi dastlabki neokonservativ ruhdagi "aql markaz"lardan biri bo'lgan "Amerika tadbirkorlik instituti"ga joylashdi. Ular orasida: I.Kristol, J.Kirpatrik, B.Uottenberg, J.Muravchik va boshqalar bor edi. 1970-yillar oxiri 1980-yillar boshida neokonservatorlarning jiddiy harakatlariga qaramay J.Karterning tashqi siyosiy yo'nalishlariga yetarlicha ta'sir ko'rsata olmagan bo'lsa-da, R.Reygan prezidentligi boshlanishi bilan neokonservatorlarning faollashuvi va ta'siri kuchaydi. Ommaviy ravishda, neokonservativ tashqi siyosiy amaliyot masalalari ko'tarila boshlandi. "Sovuq urush"ning tugashi bilan siyosiy maydonga neokonservatorlar ikkinchi avlodining kelishi AQSh tashqi siyosiy yondashuvlarini qayta g'oyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni ham yuzaga keltirdi. Endilikda, ular "sovuq urushda" g'alaba izlari hamda yuzaga kelayotgan "bir qutbli tizim" barqarorligining kafili sifatida AQShning global hukmronlik g'oyalari bilan uzviy bog'langan edi. Ammo AQShga xos qadriyatlar va AQShning yaxlitligi g'oyasi mazmunan o'zgarmadi, balki g'oyalar tatbiqida davrga xos xususiyatlardan kelib chiqib, rivojlantirib kelinmoqda.

"Sovuq urush"dan keyingi davrdagi neokonservativ qarashlar rivoji neokonservatizmning ikkinchi avlod vakillari tomonidan shakllantirila boshlandi.

Shuni ta'kidlash kerakki, neokonservatorlar elitar va yopiq guruh sifatida namoyon bo'ladi hamda ularning ko'pchiligi yahudiy millatiga mansub bo'lib, a'zolar munosabatlari qarindoshlik va mehnat faoliyati aloqalari bilan uzviy bog'langan. Masalan, Irving va Uilyam Kristollar, N.Podgores, M.But, R.Perl, P.Vulfovich, R.Kagan, D.Feyt, L.Libbi, E.Abrams, J.Bolton singari neokonservatizm tarafdorlarini

ko'rsatish mumkin.

Neokonservativ tuzilmalarga baho berishda amerikalik olim F.Fukuyamaning fikri quyidagicha: "Neokonservativ uyushmalar shakllanishining asosiy o'ziga xos turg'un jihati ularning liberal antikommunizmga tarafdor va sovet jamiyatining utopik sosial g'oyalariga qat'iy qarshilik ko'rsatuvchilar bo'lganligidir"[2].

"Sovuq urush" yakuniga kelib shakllangan neokonservatorlarning ikkinchi avlodi, xususan, R.Kagan va U.Kristollar nuqtai nazariga ko'ra, "Asosiy vazifa "bir qutbli vaziyat"ni "bir qutbli era"ga aylantirish"[3] bo'lishi kerak. Yangi avlod neokonservatorlari qarashlarida AQSh barqarorligi faqat AQShning o'zi tomonidan ta'minlashi mumkinligi e'tirof qilinadi. Mazkur barqarorlik orqali yosh neokonservatorlar xalqaro xavfsizlikning amerikacha markazi arxitekturasi – "Pax Americana"ni yaratish haqida fikr yuritishadi. Bu davrda neokonservativizmning ta'sirli va tajribali vakillaridan: P.Vulfovich, R.Perl, E.Abrams, L.Libbilar, shu bilan birga, Respublikachilar vakillaridan R.Cheyne, J.Makkeyn va D.Ramsfeldlar kabi yangi davr g'oyadoshlar guruhi shakllanishi uchun imkoniyatlar yetarli bo'ldi. Neokonservatorlarning ikkinchi avlodining paydo bo'lishi avlodlararo va oilaviy bog'liqlik jihatini namoyon qildi. Ya'ni yangi davr neokonservativizmining asosiy mafkurachilari sifatida I.Kristolning o'g'li – U.Kristol, neokonservativ tarixchi D.Kaganning o'g'li – R.Kagan, N.Podgoresning o'g'li – J.Podgoreslar e'tirof etiladi. Ularning ko'pchiligi oilaviy rishtalar bilan uzviy bog'landi.

Neokonservativizm mafkurasining rivojlanib borishi qator neokonservativ tuzilmalarning yuzaga kelishini ham taqozo qildi. Xususan, neokonservativ g'oyalar rivojida AQSh Mudofaa vazirligiga yaqin bo'lgan nodavlat neokonservativ "aql markaz"larning o'rni katta bo'ldi. Ular qatorida "Amerika tadbirkorlik instituti"ni alohida ta'kidlash mumkin. Ushbu institutning ko'pchilik tahlilchilari kichik J.Bush ma'muriyatida faoliyat yuritishgan va doimiy ravishda, davlat boshqaruvi bilan bog'liq siyosiy konsepsiyalarni taqdim etib kelishadi.

Neokonservativ g'oyalar rivojida 1997-yilda tashkil qilingan "Yangi Amerika asri uchun loyiha" lobbistik tashkiloti muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi markaz "Amerika tadbirkorlik instituti" hududidan joy oldi. Tashabbuskorlari D.Cheyne, P.Vulfovich, J.Bush va L.Libbilar hisoblanadi. Bu tashkilot ham xalqaro munosabatlar, AQShning jahon maydonida tutgan o'rni va harbiy kuch vositalaridan foydalanish kabi masalalarga doir tahliliy materiallar tayyorlash bilan shug'ullangan. Uning faoliyatida nafaqat neokonservativizm namoyandalari, balki J.Bush, D.Cheyne, S.Forbs, D.Kueyn, D.Ramsfeld singari taniqli siyosat arboblari ham faol ishtirok etishgan. "Yangi Amerika asri uchun loyiha"si AQShning "global majburiyatlarini amalga oshirish" uchun harbiy xarajatlarni ko'paytirish, AQSh qadriyatlariga tahdid soluvchi tuzumlarga qarshi kurashishda ittifoqchi davlatlar bilan munosabatlarni

mustahkamlash hamda AQSh boshchiligi va nazoratidagi xalqaro tartibotni oʻrnatish kabi maqsadlar koʻzlangan edi. Bu tashkilot oʻzining sakkiz yillik faoliyati (1997-2005) davomida 1,3 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablagʻlarni qoʻlga kiritdi. Bundan tashqari, Isroilning “Likud” partiyasini qoʻllab-quvvatlovchi, AQSh konservativ tahliliy markazlari va Isroil lobbistik guruhlari oʻrtasidagi munosabatlarni oʻrnatuvchi boʻgʻin hisoblangan “Milliy xavfsizlik masalalari boʻyicha yahudiy instituti” ham AQSh neokonservativizm mafkurasi gʻoyalari rivojida muhim oʻrin tutib kelmoqda.

AQSh davlat departamentiga yaqin nodavlat tashkilotlar qatoriga esa, “Joriy tahdidlar qoʻmitasi”, “Xorijiy aloqalar kengashi”, “Demokratiyalarni himoyalash fondi”, “Yaqin Sharq forumi”, “Chechenistondagi tinchlik Amerika komiteti” kabi tuzilmalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari, bevosita neokonservativ muassasalar bilan oʻzaro hamkorlik qiluvchi nodavlat tuzilmalar sifatida “REND korporasiyasi”, “Ozodlik uyi”, “Meros fondi”, “Gudzon instituti”, “Xalqaro respublikachilar instituti” kabi tashkilotlarni koʻrsatish mumkin.

AQShdagi neokonservativ gʻoyalar rivojida neokonservativ mediaimperiya tarkibiga kiruvchi ommaviy axborot vositalarining oʻrni kattadir. Xususan, “Fox News”, 1995 -yili I.Kristol va F.Barns tomonidan tashkil qilingan “The Weekly Standart” jurnali, “The National Interest” jurnali, “Washington Times”, “National Review”, “National Post”, “Commentary”, “The Public Interest” kabi telekanal va davriy nashrlar neokonservativ gʻoyalar targʻiboti, neokonservatorlar ilmiy-nazariy tadqiqotlari uchun minbar boʻlib hizmat qilib keladi. Shu bilan birga, neokonservatorlarning AQSh milliy mudofaasi masalalaridagi yondashuvlari rivojida harbiy sanoat kompleksi vakillari bilan hamkorlik munosabatlari ham muhim oʻrin egallaydi. Harbiy sanoat kompleksi tizimi bilan toʻgʻridan toʻgʻri ochiq aloqalar koʻzga tashlanmasa-da, bilvosita munosabatlar mavjudligi ayon boʻladi. Masalan, “Yangi Amerika asri uchun loyiha” direktorlar kengashi aʼzolari qatorida “Lockheed Martin Corporation” vitse-prezidenti Bryus Djeksonni koʻrish mumkin edi. Turli davrlarda “General Dynamics Corporation”, “Raytheon Company” va “General Electric” kabi tashkilotlar ham homiylik qilishgan. Harbiy-sanoat kompleksi bilan munosabatlarda neokonservatorlarning yaqin hamkori Respublikachi J.Makkeyning oʻrni ham katta boʻlgan.

2009-2016-yillarda neokonservatorlar faoliyati koʻproq publitsistik, yaʼni OAVdagi faolligi bilan tavsiflanadi. 2009-yildan boshlab, ularning asosiy “aql markazi” sifatida “Tashqi siyosiy tashabbus” loyihasi shakllandi. “Yangi Amerika asri uchun loyiha” faoliyati tamoyillariga tayangan holda faol tahliliy maqolalar nashr qilish, hukumat va prezidentga xatlar tayyorlash bilan shugʻullandi. Ammo taʼkidlash

kerakki, bu tashkilot kuchli ta'sirga ega bo'la olmadi. U o'z faoliyatini 2017-yilgacha davom ettirdi. Shunday bo'lsa-da, yirik kuchlar tomonidan doimiy qo'llab-quvaatlashga erishdi. Xususan, asosiy homiy sifatida "Elliott Management Corporation" sarmoyaviy fon egasi bo'lgan Pol Singer e'tirof etiladi.

### **XULOSA**

AQShning turli mintaqalaridagi tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan "aql markaz"lari ba'zan global tinchlik va xavfsizlikka salbiy ta'siri bilan xarakterlanadi. Xususan, neokonservativ ruhdagi "aql markaz"lar faoliyatiga nazar solinsa, ularning tashabbuslari ko'proq tashqi aralashuvlarni qo'llab-quvvatlash, turli mintaqalardagi ittifoqchilarni iqtisodiy va harbiy-texnikaviy qo'llab-quvvatlash va global gegemonlik g'oyalarini amalga oshirishga qaratilganligi namoyon bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Kristol I. The Neoconservative Persuasion // The Weekly Standard . – 2002. – № 50. –R. 13.
2. Fukuyama F. After Neocons: America at the Cross-Roads. – Profile Books; Main edition, 2006. – R.16.
3. Kagan R., Kristol W. Present dangers: Crisis and Opportunity in America's Foreign and Defence Policy. – San Francisco: Encounter Books, Kindle Edition, 2000. – P.4.